

O'zbek olimlari to'g'risida ma'lumot beradigan veb-sayt yaratildi

O'zbek ilm-fani o'zining shonli tarixiga ega. Va mana shu tarixni yaratishda o'zbek olimlari ayollarining o'zni beqiyos.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi tashkil etilganiga 80 yildan oshdi. Biroq mana shu salkam bir asrlik fan tarixida o'zbek olimlari haqida to'la ma'lumot beradigan manba mavjud emas edi. Shu bois o'zbek olimlari to'g'risida ma'lumot beradigan veb-sayt yaratish zarurati tug'ildi.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Wonder Women xalqaro hamjamiyati hamkorligida Osiyo taraqqiyot banki ko'magi asosida birinchi marta "O'zbekiston olimlari ayollari" sayti yaratildi.

Saytning asosiy maqsadi o'zbek ilm-fanida o'ziga xos maktablar yaratgan olimlarni, zamonaviy fanda yangiliklar qilayotgan iste'dodli, ilmiy ayollar faoliyatini jahonga tanitish, shu bilan birga mamlakatimiz fani rivoji uchun hissa qo'shib kelayotgan o'tmish va hozirgi zamon olimlarimizni bugungi kun qahramonlari sifatida namoyish etishdir.

Saytning birinchi qismida tarixda o'z o'rniga ega bo'lgan olimlari ayollar Hadicha Sulaymonova, Galina Pugachenkova, Maqsuda Xojanova singari ayollar hayoti, ilmiy izlanishlari tarixi kiritilgan.

Ikkinchi qismi hozirda Fanlar akademiyasida faoliyat yuritayotgan olimlarimiz va besh nafar akademik ayollarga bag'ishlangan.

Saytda fizika-matematika, kimyo-biologiya va tibbiyot, ijtimoiy-gumanitar fanlarda zamonaviy tadqiqotlar bilan shug'ullanayotgan fan doktorlari va professor olimlarimiz haqida to'liq ma'lumotlar kiritilgan. Ularning hayoti, ilmiy faoliyati, barcha yutuqlari to'g'risida ma'lumotlar mavjud hamda kelgusida ular mazmun va son jihatdan yanada boyitib boriladi.

Saytning jamiyat va fan hayotidagi ahamiyati ham mavjud. Ushbu platforma mazmunan ilmga hayajon va hayrat bilan kirib kelayotgan xotin-qizlarga ulkan ilmiy izlanishlari bilan tanilgan olimlari hayoti o'rnak, namuna, bir so'z bilan aytganda, model vazifasini o'taydi.

Qisqa qilib aytganda, bu sayt orqali o'zbek olimlari va ular olib borayotgan sermahsul izlanishlarni dunyoga ko'rsatishdir. Shu bilan birga ilmiy, ma'rifatli olimlari qizlarni jamiyatga, ilm-fanga tayyorlab berishdir.

Saytga joylashtirish uchun olimlari ayollar to'g'risidagi ma'lumotlar monitoring@academy.uz elektron manzili orqali qabul qilinadi.

Sayt bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin:

www.womeninscience.uz